

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

mazojiy ifodalanadi. Shuning uchun bu go’zallikdan ko’ngil hayratlanmasa ham bo’ladi. Lirik qahramon hatto yoriga o’z ko’zi tegmasligi uchun samimiy ishq va pokiza muhabbati bilangina uni saqlash va anglash mumkin deb hisoblaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu muxammas ishqiy mavzuda yozilgan bo’lsa-da, uning tag zahirida tasavvufiy ma’no, ya’ni ilohiy muhabbatni anglash, unga yetishish yo’lida qancha mashaqqat, azob yo’lini bosib o’tish lozimligi, va hatto bu muhabbatga erishgach ham uni qalbdan saqlash, anglash darkorligi uqtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Xalliyeva .Ogahiy musammatlari. Monografiya. Toshkent, 2019.
2. .O.Karimov. Mumtoz she’riyat janrlari. Uslubiy qo’llanma. Namangan. 2015.
3. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., Fan, 1963.
4. Usmon Qobilov. Alisher Navoiy „Badoyi ul-bidoya” devonida nubuvvat masalasi va Masih obrazi talqini. Alisher Navoiy Xalqaro jurnali .3-jild .2-son. Toshkent. 2023.
5. www.google.uz
6. www.ziyounet.uz

TILSHUNOSLIKDA NUTQIY SINTAKTIK QOLIPLARDAN O‘RINLI FOYDALANISH

Mohinur Mo‘min qizi Raxmatilloeva
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikda modellashtirish metodi, ona tilimizdagi qoliplashtirish haqidagi fikrlar, ayrim so‘z birikmalarining sintaktik qoliplari hamda ulardan nutqiy hosilalar yaratish, ergashgan qo‘shma gaplarning nutqiy sintaktik qoliplari, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning sintaktik qoliplaridan foydalanishning ahamiyati masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: lingvistik modellashtirish, avtomatik tarjima, lisoniy sintaktik qolip, nutqiy hosila, ergashgan gap qolipi, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar qolipi.

Jamiyatimiz taraqqiyoti tufayli tilimizda ham turli yo‘nalishlar hamda turli xil metodlar vujudga keldi. Jumladan, modellashtirish metodi nafaqat tilimizning turli bo‘limlarini ixchamlashtirib o‘zlashtirish uchun, balki kompyuter lingvistikasi sohasida tarjima ishi uchun, shuningdek, komparativistikada tillarni o‘zaro taqqoslash uchun ham juda muhim usullardan biri sanaladi. Grammatikani formallashtirish tendensiyasi XX asrning o‘rtalarida kuchaydi. Bu

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bevosita tilning strukturasi yanada aniq parametrlarda ifodalashga intilish, uni kompyuterga moslashtirishga urinish bilan bog‘liqdir.

Qoliplashtirish, ya’ni har bir fan obyekti soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni qoliplashtirish bu so‘z birikmasi, gaplarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o‘rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik qoliplashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qoliplashtirish barcha fanlar uchun xos bo‘lgan umumilmiy metod hisoblanadi.

Modellashtirish tilshunoslikda strukturalizm yo‘nalishi ta’sirida faol qo‘llanila boshlandi. Gap strukturasi modellashtirish g‘oyasi XX asrning 50- yillarida amerikalik tilshunos olim Charlz Friz tomonidan olg‘a surilgan. Tilshunos o‘z qarashlarini umumlashtirib 1952-yilda “The Structure of English” nomli tadqiqotini yaratdi: Ch.Friz o‘z konsepsiyasini distributiv model deb nomlagan. Unga ko‘ra, gap muayyan so‘z turkumlariga oid bo‘lgan so‘zlar zanjiri hisoblanadi va tahlilda morfologiya bazasiga tayaniladi. Masalan, “*The young man painted the door yesterday*” jumlasini distributiv model asosida quyidagicha tahlil etiladi: D 3 I^a 2-d D I^b 4. Bu yerda D - otning aniqlovchisi (inglizcha determiner), 3 - sifat, I - birlikdagi ot, 2-d - o‘tgan zamon shaklidagi fe‘l, 4 - ravishni anglatadi. Demak, mazkur qolipda turli so‘z turkumlariga mansub so‘z shakllarining nutq zanjiridagi distributsiyasi (tarqalishi, qurshovi) gap strukturasi qoliplashtirishning asosiy mezonini sanaladi.

Sintaktik qoliplar haqida so‘z borganda M.Qurbonovning nazariyalaridan foydalanmaslikning, unga yondashmaslikning iloji yo‘q. Shuningdek, “M.Abduzalovalar ko‘rsatganidek,” - deb aytadi ustoz, - “Kecha ishga bormadim” va “Men kecha ishga bormadim” gaplari mohiyatan ayni bir sintaktik qurilmadir. Egali va egasiz, yoyiq va yig‘iq, kengaygan va kengaymagan gap qoliplari bitta qolipning, bir umumiylikning turli tartibda voqealanishi deb baholanadi va gap paradigmasida asosan ikkita qolip: : [WPm] - {[WPm]V[WPm]} kabi munosabatlar ajratiladi. O‘zbek nutqidagi barcha turdagi son-sanoqsiz gaplar shu ikki qolipning xilma-xil darajada kengaygan, turlicha murakkablashgan hosilalari sanaladi.¹¹³

Nutqiy sintaktik qolip sifatida esa nutqda qo‘llaniladigan o‘qish, yozish, aytish, eshitish mumkin bo‘lgan so‘z birikmasi va gap tushuniladi. Nutqiy sintaktik qoliplarning ahamiyati katta. Xuddi shuningdek, ayrim birikmalarni bir biridan ajratish uchun ham bir necha qoliplar shakllantirilmoqda.

Jumladan, fe‘l+fe‘l qolipini tilshunoslikda farqlashimiz mumkin.

1. Fe‘l+fe‘l = so‘z birikmasi (ravishdosh + fe‘l): yig‘lab gapirmoq;
2. Fe‘l+fe‘l = qo‘shma fe‘l: ishlab chiqarmoq, sotib olmoq;

¹¹³ Абузалова М. Узбек тилида содда гапнинг энг кичик курилиш колипи ва унинг нуткда воқеаланиши. Филол.фанлари номзоди ...дисс. -Тошкент, 1994.; Саидова М.Р. Сравнительно-типологическое исследование единичных предложений в русском и узбекском языках. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук.. -Ташкент, 1996.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

3. Fe'l + fe'l = ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi: o'qiy boshlamoq, yugura olmoq.

4. Fe'l + fe'l = ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi: sotib yubormoq, kabi.

Guvohi bo'lganimizdek, birgina qolipning tilda bir nechta hosilalar berishi

beqaror tizimning modellastirilishi demakdir. Bunday qoliplar nafaqat tilimizni ixchamlashtirib o'zlashtirish yoki uni boshqa tillarga taqqoslash, (fe'l + fe'l = qo'shma fe'l: ishlab chiqarmoq, sotib olmoq ushbu qolip ingliz tilida Vga teng: to produce, to buy), balki avtomatik tarjima uchun ham eng qulay usullardan biri hisoblanadi. Tarjima tizimida sintaktik qoliplardan foydalanish so'nggi yillarda samarali usul sifatida jadal sayqallanib bormoqda. Jumladan, N.Abdurahmonovanning bir qator tadqiqot ishlari buning isboti o'laroq “Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti” monografiyasida bir qancha sintaktik qoliplardan avtomatik tarjima uchun foydalanilgan.

Sanaladigan otlar ko'plikda ifodalanishiga ko'ra quyidagi model ko'rinishida bo'ladi:

I. Noun+(e)s->umumiy ko'rinish:

1. N1-tipidagi otlar. Unga <s> yoki < yes> suffikslari qo'shilganda fonetik hodisaga uchramaydigan leksemalar kiradi hamda ular quyidagicha modelga ega:

1.1. N(cons.)+s=> so'z=>Ncount+s=> flowers (gullar), guys (yigitlar);

1.2. PropN+KQ=> the Germany+s=>the Germanys (germaniyaliklar);

1.3. (N(vow.+y))+ s =>day+s=> days (kunlar);

1.4. (CN+y)+s=> stand-by+s=>stand-bys (tayyorgarlik holatlari);

1.5. (N(+o)count+s)=>photo+s=>photos (rasmlar).¹¹⁴

Birinchidan, qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilish o'rinlarini aniqlashtirish uchun sintaktik qoliplardan foydalanish eng maqbul yo'l sanalsa, ushbu qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalari va uning o'rnini aniqlash uchun ham sintaktik qoliplardan foydalanish o'rinlidir.

Masalan, bosh gap qolipi -



Ergash gap qolipi -



Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut – baraka bo'ladi.

1. Bog'lovchi vosita - nisbiy so'zlar (qayerda...sa, o'sha yerda...)

Qolipi:



-sa,



.

Odamlardan qolmasin deb, marosimni soat besh yarimga tayin qilganmiz .

1. Bog'lovchi vosita: deb so'zi.

Qolipi:




-sin deb,



¹¹⁴Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti.-T.: Muharrir,2018 -B.175.


Bunday ergash gapli qo‘shma gap turlarini oson o‘rganish modellar yordamida yodlash ham yaxshi samara beradi.

Shuni...-
ki



Shuni ...-ki,... To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

Shunga...
ki




Shunga...-ki,... To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

Shunda...-ki




Shunda...-ki,... To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

Shunisi...-ki




Shunisi...-ki,... Ega ergash gapli qo‘shma gap

Shunday...-ki



Shunday...-ki,... Aniqlovchi, hol ergash gapli qo‘shma gap

...shuki



...shuki, ... Kesim ergash gapli qo‘shma gap

Yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, tilimizni soddalashtirish uchun yaratilgan qoliplar uni o‘zlashtirish uchun ham qulayliklar yaratdi. Masalan, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda ham ergashgan qo‘shma gaplardagi kabi sintaktik qoliplar ularning tuzilishini, qo‘llanilishini bilib olish uchun ham, ularda tinish belgilarining ishlatilishini o‘zlashtirish uchun ham keng tatbiq qilinayotgani buning yaqqol misoli:

Bunda ko‘chirma gap – K , k, muallif gapi – M, m shaklida belgilanadi hamda ular bir-biridan turlicha joylashishi mumkin.

Masalan ko‘chirma gap darak maylida bo‘lganda qo‘shirnoq tinish belgisidan keyin vergul, muallif gapidan oldin esa tire ishlatiladi: **“K”,- m.**

Namuna: “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, - deydi dono xalqimiz.

Agar ko‘chirma gap so‘roq yoki his-hayajon gap bo‘lganda ushbu gap qoliplari o‘zgaradi: **«K?»—m. «K!»—m**

Muallif gapi ko‘chirma gaplardan oldin kelganda esa ushbu qoliplardan foydalaniladi:

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

M: «K».

M: «K?»

M: «K!»

Muallif gapi va ko‘chirma gaplar aralash holda ishlatilganda esa ushbu qoliplar ishlatiladi.

M:«K»,—m.

M:«K?»—m.

M:«K!»—m.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
2. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti. Toshkent: Muharrir, 2008 – B.175.
3. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: monografiya .- T.: Nodirabegim, 2020;
4. Benson M., Benson E., Ilson R. The BBI Combinatory Dictionary of English.1990
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
6. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar). – Toshkent: Universitet,2002.
7. Natlib.diss.uz
8. [en.wikipedia.org. /wiki/history_machine_translation](https://en.wikipedia.org/wiki/history_machine_translation)
9. Ziyouz com.

COVID-19 ВИРУСЛИ ИНФЕКЦИЯЛАР МУРДА СУД ТИББИЙ ЭКСПЕРТИЗАСИДА АНТИГЕН ВА АНТИТЕЛА УЧУН ТЕСТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКСПРЕСС-ТЕСТОВ НА АНТИГЕНЫ И НА АНТИТЕЛА (РАТ), В СЛУЧАЯХ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ТРУПА ПРИ COVID-19.

Гулмирова Барно Убайдуллаевна
*Студентка 4 курса Ташкентской Медицинской
Академии Чирчикского филиала*

THE USE OF EXPRESS TESTS FOR ANTIGENS AND ANTIBODIES (RAT), IN CASES OF FORENSIC MEDICAL EXAMINATION OF THE CORPSE.